



## MAKTAB O'QUVCHI QIZLARINING IJTIMOY FAOLLIGINI OSHIRISH

**Azizova Shohsanam**  
**Andijon davlat Pedagogika instituti**  
**Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi**  
**yo'nalishi talabasi**

**Doi:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15226622>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada biz o'zbek qizlarining huquqlari ularning katta hayotga tayyorlash umumta'lim maktablarida qizlarga bo'lgan e'tiborni yanada oshirish jamiyatga kerakli insonlar qilib tarbiyalashni o'rgandik.

**Kalit so'z:** ijtimoiy hayot, psixologiya, pedagogika, valeologik, mehnat, qonun, qaror, siyosiy kabi so'zlar bor.

Bugungi kunda O'zbekistonda xotin qizlarga e'ttibor kuchaygan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 18-fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy ma'naviy muhitini sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF 5938-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash to'g'risida respublika miqyosida qator amaliy ishlar olib bormoqda. Umumta'lim maktablarida biz qizlarga avvalo darsda o'zini tuta bilishni o'rgatishimiz zarur. Kattalarga bo'lgan hurmatni shakllantirishimiz kerak. Qizlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash bo'yicha o'quv uslubiy majmualar ishlab chiqish zarur. Avvalo qizlarning psixik ongini o'rganishimiz va ularga pedagogik yondoshishimiz kerak. O'qituvchi o'quvchilarni qobiliyatiga, qiziqishiga, oilaviy muhitiga e'tibor qaratishi zarur. Chunki o'qituvchi shu faoliyatlarga e'tibor bermasa o'quvchilar bilan aloqani yo'qotadi. Bu borada ayniqsa qizlarga e'tiborni kuchaytirishimiz kerak bo'ladi. Maktabda qizlar ayniqsa o'smir yoshida bo'lsa ularga juda ehtiyotkor munosabatda bo'lamiz. Bu davr bolalarda juda og'ir o'tadi. Shu davrni inobatga olgan holda qizlarga asosan o'yin orqali darslarni tashkil qilishimiz maqsadga muvofiq. O'qituvchi avvalo o'z kasbini sevsa darsni o'tishi juda qiziqarli bo'ladi. O'z ustida ishlaydigan o'qituvchi har darsga to'liq tayyorlanib keladi. Darsi ham mazmunli va qiziqarli bo'ladi. O'smir yoshidagi qizlarda o'ziga bo'lgan ishonch pasayib ketadi. Ishonchni oshiradigan metodikalarni ko'proq qo'llash kerak. Maktabdagi psixolog ham bolalar bilan ishlashi kerak. Ota-onalar ham bu yoshda qizlariga alohida e'tibor qaratishi zarur. O'qituvchi bilan ota-ona hamkorligi bu bolaning faqat foydasiga ishlaydi. Lekin o'qituvchi ham chegarada turishi o'z o'rnida gapirishi lozim. Chunki oshiqcha bosim, terqash bolalarni bezdirib qo'yadi. Buni oldini olish uchun ota-ona bu bosimni kamaytirishi qizlariga ishonishlarini doim ta'kidlab turishi, ulardagi o'zgarishlarni doim e'tibor bilan kuzatishlari kerak. O'qituvchi qizlarga asosan qiziqarli bo'lgan metodlarni qo'llashi, ular nimaga qiziqishlarini doim o'zlaridan so'rab turishi lozim. Darsda o'qituvchi o'quvchilarni doim bir mashg'ulot bilan band qilishi ularni bo'sh o'z holiga tashlab qo'ymasligi kerak. O'quvchilarning har bir savoliga javob bera olishi muhim. Buning uchun esa o'qituvchi har qanday savolga tayyor turishi vaziyatdan yumshoqlik bilan chiqishi o'quvchilarga iloji boricha yaxshi muomala qilishi kerak. O'quvchilarni darsdan tashqari qariyalar uyiga, imkoniyati cheklangan bolalar bilan tanishgani ham olib borish kerak. Shunda o'quvchi o'zida bor bo'lgan narsalarga shukur qilishni o'rganadi. Bu ekskursiya o'quvchilarni ijtimoiy hayotga moslashishiga yordam beradi. Hozirda tashkil etilayotgan inklyuziv ta'lim ham o'quvchilarni imkoniyati cheklangan bolalar bilan birga o'qishga o'rgatadi. Ularga bo'lgan qarashlarini yaxshi tomonga o'zgartirishadi. Bu bolalarga yordam berib ham o'zlarini yaxshi his qila bohlashadi. Qizlar ayniqsa bu borada o'g'il bolalargan nisbatan faolroq bo'ladi. Qizlar bu orqali ham jamiyatga moslashishi oson bo'ladi. Ulardagi ko'nikmalar kengayadi va shakllanadi. Inklyuziv ta'lim sohasi juda katta ishlarni amalga oshirmoqda. Birgina ta'lim sohasida bolalarni imkoniyati cheklangan bolalar bilan birga ta'lim olishi ham bolalarga katta ta'sir ko'rsatadi. Qizlarda doim o'g'il bolalarga nisbatan his tuyg'uga moyillik ko'p bo'ladi. Shuning uchun ham qizlarga nisbatan o'ta qattiqqo'llik qilish kerak emas. Qizlar ijtimoiy hayotga moslashishi ham tezroq bo'ladi. Umumta'lim maktablarida qizlarni o'zaro munosabati ham muhim. Chunki bu yoshda jahlg'a berilish, menini ustun qo'yish yuqori bo'ladi. Ota-onalar bu yoshdagi qizlarni kasbga, hunarga o'rgatib bo'sh vaqtini iloji



boricha bo'sh qo'yimasligi lozim. Hamma narsa bo'sh vaqti ko'p hech qanday ish bilan shug'ullanmaydigan yoshlardan kelib chiqadi. Qizlar bilan huddi kattalardek gaplashish ularning fikrini ham eshitishi va inobatga olishi ularni kerakli ekanligini his qilishga yordam beradi. O'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. O'quvchi qizlarni ijtimoiy faolligini ularning ijtimoiy siyosiy jarayonlardagi ishtirokini mehnat hamda madaniy ma'rifiy faoliyatini kuchayishi qonunda belgilab qo'yilgan huquq va burchlarini to'liq amalga oshirishga intilishi tushuniladi. Jamiyatda ijtimoiy faol shaxsning o'z o'rnini topishi va xulq atvorini ongli ravishda boshqarishining asosiy sharti hisoblanadi. Ijtimoiy faollikning uch turi mavjud: ijtimoiy siyosiy jarayonlar va madaniyat mehnat va turmush sohasidagi mehnat faolligi mehnat munosabatlari sohasida namoyon bo'ladi va subektning kasbiy ijtimoiy vazifani bajarish bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Jamiyatimizda ham qizlarni qo'llab quvvatlashga qaratilgan ishlar juda ko'p. Mamlakatimizda xotin-qizlarni huquqlarini himoya qilish ularning bandligini ta'minlash to'g'risida ham qonunlar, qarorlar va turli xil tadbirlar tashkil etilyapti. Ulardan biri joriy yilning 23-26-mart kunlari Samarqand shahrida ilk bor "Qizlarjon" o'quvchi qizlar sammiti bo'lib o'tdi. Mazkur sammit o'quvchi qizlarning zamonaviy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish kasb-hunarga o'rgatish shuningdek milliy urf-odat va an'analar ruhida tarbiyalash, oilaviy hayotga tayyorlash, ilg'or tajribalarini ommalashtirish va qo'llab-quvvatlash kabi maqsadlarni ko'zlab umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida "Ilm fan-kelajak poydevori" shiori ostida tashkil etiladi.

O'quvchi-qizlar suhbat asosida ijtimoiy jarayonlardagi faolligi, Vatani tarixi va buguni haqida ma'lumotga egaligi, xorijiy tillarni mukammal bilishi, liderlik ko'nikmalari shakllanganligi, ta'lim, ijtimoiy sohalaridagi xorijiy tajribasi bilan tanishligi, tanqidiy va tahliliy tafakkurining rivojlanganligi, inobatga olingan holda saralanadi. Bu turdagi tadbirlar, sammitlar mamlakatimizda xotin-qizlar uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ularni ijtimoiy hayotga jamiyatga kirishida yordam beradi. Hozirgi kunda mamlakatimizda qizlarni erta turmushga berish odati yo'qolyapti. Bundan o'n yil oldin ham bu odat mavjud edi. Bu qizlarimiz uchun juda katta ta'sir ko'rsatardi. Qizlarni o'qitishmasdi biror hunar o'rgatib o'n sakkiz yoshida turmushga berib yuborilardi. Yosh qizlar o'zlari hali bola bo'la turib ona bo'lishardi. Farzandiga yaxshi qaray olishmasdi ham. Davlatimiz olib borgan siyosat tufayli bu odat ancha yo'qoldi. Jamiyatimiz qizlarga ham ta'lim berish kerakligini va bu kelajak avlod uchun ham foydali ekanligini tushunib yetishdi. Qizlarga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Erta turmushga berish qonunan ta'qiqlandi. Qizlarning sog'lig'i ham e'tiborga olindi. Chunki sog'lom ona sog'lom bola deb shifokorlarimiz ham bejiz aytishmagan. Qizlarimiz erta turmush va qarindoshlar orasidagi nikoh orqali ham sog'lig'i ancha zaiflashdi. Ulardan tug'ilgan farzandlar ham sog'lom bo'lmasligi mumkin edi. Xalqimiz genofondini yaxshilash uchun ham bu turdagi nikohlar ham qoralandi. Davlatimiz bu borada ham qonun chiqarishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Endilikda yurtimizda tashlab ketilgan bolalarning ham ota-onasini aniqlash yo'lga qo'yildi. Bu orqali kelajakda aka-singillar nikohini oldini olish hisoblanadi. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar kelajagimiz uchun ham qizlarimiz uchun ham yaxshi natijalar bermogda. Bugungi kunda qizlarni bilimli qilish yo'lida yana bir tadbir joriy qilindi. Qizlarga foizsiz ta'lim krediti berish ham xotin-qizlarga bo'lgan e'tiborning kuchli ekanligidan dalolat beradi. Bu berilayotgan imkoniyatlardan qizlarimiz to'g'ri foydalansa o'zi uchun faqat foyda bo'ladi. Kelajakda o'z kasbini ustasi bo'lishiga yordam beradi. Bilim olishning erta kechi yo'q. O'z vaqtida olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabi bo'ladi. Maktab davrini bilim olish bilan o'tkazgan o'quvchi o'z kelajagini hozirdan qurib boradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "Maktabgacha yoshidagi qizlar bilan ishlash" yo'nalishi bo'yicha o'quv uslubiy majmua. 6-7 betlar.
2. Ismoyilova .R Yo'lchiyeva. D.
3. O'quvchi qizlarni ijtimoiy faolligini oshirish barcha islohotlar samaradorligining kafolatidir. Nurmatova Nargiza Ulug'bek qizi.